



O‘ZBEKISTON RAQAMLI XIZMATLAR SEKTORINING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI: NAZARIY ASOSLAR VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

A.B. Aliqulov –

Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi

E_mail: abbosaliqulov1253@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli xizmatlar sektorining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish bosqichlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. 2010–2023 yillar statistik ko‘rsatkichlari asosida sektorning iqtisodiy o‘lishga ta’siri baholangan. Raqamli xizmatlarning makroiqtisodiy jarayonlardagi funksiyasi, bevosita va zanjirli ta’sir mexanizmlari yoritilgan hamda soha samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli xizmatlar, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy o‘lish, yalpi YaIM, elektron to‘lovlar, statistika, iqtisodiy samaradorlik.

THE ROLE OF THE DIGITAL SERVICES SECTOR IN UZBEKISTAN’S ECONOMY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND STAGES OF DEVELOPMENT

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the role and stages of development of the digital services sector in the economy of Uzbekistan. Based on statistical indicators for the period 2010–2023, the sector’s impact on economic growth is assessed. The macroeconomic functions of digital services, including their direct and indirect (multiplier) effects, are examined. The study also proposes scientifically grounded recommendations aimed at increasing the efficiency of the sector.

Keywords: digital services, digital economy, economic growth, gross domestic product (GDP), electronic payments, statistics, economic efficiency.



Kirish

So‘nggi yillarda global miqyosda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqamli xizmatlar sektori alohida strategik yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Jahon banki, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) va boshqa yetakchi tashkilotlarning tahlillariga ko‘ra, raqamli xizmatlar sektori iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, bandlikni oshirish va xizmatlar eksportini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyot va ayniqsa raqamli xizmatlar sektorini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron to‘lov tizimlari, elektron hukumat xizmatlari, onlayn bank tizimlari kabi yo‘nalishlar iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok eta boshladi.

Mazkur maqolada raqamli xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi nazariy o‘rni, asosiy tarkibiy yo‘nalishlari va O‘zbekistondagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu sektorni kompleks baholash uchun ilmiy yondashuvlar va xalqaro tajribalar ham yoritiladi.

Method

Tadqiqotda statistik tahlil, deskriptiv usul, evolyutsion bosqichlar bo‘yicha taqqoslash, shuningdek, ICT indikatorlari asosida sektorni iqtisodiy o‘shish bilan bog‘lovchi nazariy asoslar yoritilgan. 2010–2023 yillar oralig‘idagi real statistik ma’lumotlar asosida tahlil amalga oshirilgan.

Natijalar

Raqamli xizmatlar sektori - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasini anglatadi. U odatda uch asosiy yo‘nalishni qamrab oladi:

- infratuzilmaviy xizmatlar (internet, mobil aloqa, keng polosali tarmoqlar),
- raqamli platforma xizmatlari (elektron hukumat, onlayn savdo, elektron bank va to‘lov tizimlari),



- raqamli kontent xizmatlari (onlayn ta'lim, media, axborot bazalari).

Ushbu sektorning o'ziga xos xususiyati – u boshqa barcha iqtisodiy tarmoqlar uchun “raqamli transformatsiya vositasi” sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, raqamli xizmatlar sog'liqni saqlashdan tortib transportgacha, bankdan tortib qishloq xo'jaligigacha bo'lgan sohalarda xizmat sifati, tezligi va shaffofligini oshirish imkonini beradi.

Jahon amaliyotida raqamli xizmatlar sektori ko'pincha AKT xizmatlari bilan birgalikda baholanadi. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) tavsiyasiga ko'ra, raqamli xizmatlar sektori quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi:

- Internet foydalanuvchilari soni (% aholidan),
- Keng polosali tarmoqlar soni,
- Mobil aloqa abonentlari,
- E-xizmatlar soni va ulardan foydalanish darajasi,
- Raqamli to'lovlar hajmi va soni.


O'zbekistonda so'nggi yillarda bu sektor jadal rivojlanmoqda. Xususan, “Elektron hukumat” portalining faoliyati, Humo va UzCard to'lov tizimlarining kengayishi, onlayn bank va elektron savdo xizmatlarining keng ommalashishi ushbu sektorning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

№	Yil	Internet foydalanuvchilari (%)	Mobil aloqa abonentlari (mln)	Elektron to'lovlar hajmi (trln so'm)
1	2010	18	15,3	0,3
2	2011	22	17	0,5
3	2012	27	18,5	0,8
4	2013	32	20,2	1,2
5	2014	38	22,1	1,9
6	2015	44	23,5	3,2



7	2016	50	24,8	4,8
8	2017	58	25,1	6,7
9	2018	65	25,3	8,1
10	2019	71	26	10,2
11	2020	77	27,4	13
12	2021	82	28	16,5
13	2022	87	28,3	19,7
14	2023	90	28,5	22,3

1-jadval: Raqamli xizmatlar sektori statistikasi (2010–2023)¹




1-rasm: Internet foydalanuvchilarining ulushi (2010-2023y)²

Internet foydalanuvchilari ulushi yil sayin izchil oshgan, 2010 yildagi 18% dan 2023 yilda 90% gacha yetgan.


¹ Muallif tomonidan ochiq ma'lumotlar asosida tuzilgan

² Muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm: Mobil aloqa abonentlari soni (2010-2023y)³

Mobil aloqa abonentlari sezilarli o'sishni ko'rsatgan - 15 milliondan 28 milliongacha. Mobil aloqa abonentlari sezilarli o'sishni ko'rsatgan - 15 milliondan 28 milliongacha.



3-rasm: Elektron to'lovlar hajmi (2010-2023y)⁴

Elektron to'lovlar hajmi 0.3 trln so'mdan 22.3 trln so'mgacha keskin o'sgan - bu sektorning real iqtisodiy faolligini isbotlaydi.

³ Muallif tomonidan tuzilgan

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan



Muhokama

O'zbekistonda raqamli xizmatlar sektorining shakllanishi 2010-yillardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib keldi. Dastlab, bu jarayon asosan internet va mobil aloqa infratuzilmasini kengaytirish bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik elektron to'lovlar, davlat xizmatlari va onlayn bank tizimlarining kengayishi bilan yanada jadallashdi.

1-bosqich (2010–2014): infratuzilmaviy asos yaratish

Ushbu davrda asosiy e'tibor keng polosali internet tarmoqlari va mobil aloqa qamrovini kengaytirishga qaratildi. Internet foydalanuvchilari ulushi 18%dan 38%gacha o'sdi. Mobil aloqa abonentlari 15 milliondan ortdi. Bu bosqichda xizmatlarning raqamli shaklga o'tishi endi boshlangan edi.

2-bosqich (2015–2018): xizmatlar raqamlashtirilishi va elektron to'lovlarning kirib kelishi

Bu yillarda Click, PayMe, UzCard kabi elektron to'lov tizimlari joriy etildi va faoliyatini kengaytirdi. Internet foydalanuvchilari ulushi 50% dan oshdi, elektron to'lovlar hajmi esa 3 trillion so'mdan yuqorilab ketdi.

3-bosqich (2019–2023): integratsiya va raqamli xizmatlar eksploziv o'sishi

“Raqamli O'zbekiston–2030” strategiyasining qabul qilinishi bilan sektor rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. My.gov.uz, Humo, Soliq, E-auksion platformalari, Davlat xizmatlari agentligi portallari faol joriy etildi. Bu yillarda internet foydalanuvchilari 90%ga yetdi, elektron to'lovlar hajmi esa 22 trillion so'mdan oshdi.

Bu bosqichlar orqali ko'rinadiki, raqamli xizmatlar sektori O'zbekiston iqtisodiyotida infratuzilmadan to iqtisodiy samaradorlikkacha bo'lgan evolyutsion yo'lni bosib o'tdi.

Raqamli xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion drayver sifatida maydonga chiqmoqda. Bu sektorning iqtisodiyotga ta'siri quyidagi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:



1. To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sir

Raqamli xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida xizmatlar bo'limining o'sishini rag'batlantiradi. O'zbekistonda bu sektorning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri telekommunikatsiya, IT xizmatlari va elektron moliyaviy xizmatlar ulushi orqali ko'rinadi. Masalan, 2023 yilda AKT sohasining YaIMdagi ulushi 2,5% atrofida baholangan⁵.

2. Zanjirli ta'sir

Raqamli xizmatlar boshqa sohalarda mahsuldorlikni oshirishga xizmat qiladi:

Elektron davlat xizmatlari - korrupsiyani kamaytiradi

Raqamli to'lov tizimlari - moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi

Onlayn savdo platformalari - ichki bozorni kengaytiradi

3. Innovatsion transformatsiya vositasi sifatida

Raqamli xizmatlar iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratadi (freelance, IT, fintech) va ishbilarmonlik muhitini o'zgartiradi. Bu orqali u ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. ITU va WEF hisobotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar o'sishini 10%ga oshirish mamlakat YaIM o'sishini o'rtacha 1.5–2.0%ga tezlashtiradi.

Xulosa

Raqamli xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mazkur maqolada sektorning nazariy asoslari, uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi rivojlanish bosqichlari hamda iqtisodiy o'sishga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilindi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli xizmatlar sektori makroiqtisodiy barqarorlik, xizmatlar sohasi kengayishi, moliyaviy inklyuzivlik va davlat xizmatlarining shaffofligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

⁵ www.stat.uz



2010–2023 yillar davomida internet foydalanuvchilari 18% dan 90% gacha o'sdi;

Elektron to'lovlar hajmi 0.3 trln so'mdan 22 trln so'mga yetdi;

Mobil aloqa abonentlari soni 28 milliondan oshdi;

Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning yalpi iqtisodiy samaradorligi hali to'liq o'lchanmagan.

Mazkur holat quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surishga asos bo'ladi:

Raqamli xizmatlar samaradorligini baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish:

YaIMga nisbatan raqamli xizmatlar ulushi, foydalanuvchilar soni, xizmatdan foydalanish chastotasi, xizmat sifati va vaqt tejalishi (effektivlik) kabi ko'rsatkichlar tizimli yuritilishi lozim.

Sohaga oid empirik baholash va modellashtirish tizimini joriy etish:

ARDL, VAR yoki boshqa ekonometrik modellar asosida raqamli xizmatlar sektorining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri muntazam o'rganib borilishi zarur.

Raqamli xizmatlar sektorida innovatsion texnologiyalar (blokcheyn, AI) ni joriy etish:

xizmatlar sifati, ishonchliligi va shaffofligini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlik kuchayadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. 2020-yil 5-oktabr, PQ–6079-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi statistik ma'lumotlari. <https://stat.uz>

3. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023. <https://www.itu.int>



4. Jahon banki. Digital Economy for Central Asia. Washington, DC, 2021.
<https://www.worldbank.org>
5. Uzcard rasmiy sayti – Elektron to‘lovlar statistikasi. <https://uzcard.uz>
6. Click. Elektron to‘lov tizimlari statistikasi va hisobotlari. <https://click.uz>
7. WEF (World Economic Forum). Global Competitiveness Report: Digital Transformation Readiness. 2023. <https://www.weforum.org>
8. Romer, P. M. (1990). “Endogenous Technological Change.” Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102.
9. Solow, R. M. (1957). “Technical Change and the Aggregate Production Function.” Review of Economics and Statistics, 39(3), 312–320.
9. Kurpayanidi, K.I., & Ilyosov, J.M. (2022). “Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy holati va uni rivojlantirish yo‘llari.” Iqtisodiyot va ta’lim, 2(54), 45–50.